

O’QUVCHILARDA MA’NAVIY-AXLOQIY FAZILATLARNI  
SHAKLLANTIRISHDA PEDAGOGIK TEXNALOGIYALARNING  
TA’LIM VA TARBIYA TIZIMIDAGI AHAMIYATI

*Niyozova Shahnoza Farxod qizi*

*Boshlang’ich ta’lim yo’nalishi 322-guruh talabasi.*

*Ilmiy rahbar: Sh. Donayeva.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o’quvchilarda ma’naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish masalasi va bu jarayonda pedagogik texnalogiyalarning ta’lim va tarbiya tizimidagi ahamiyati tahlil qilingan. Maqolada zamonaviy pedagogik yondashuvlar, jumladan, interfaol metodlar, muammoli ta’lim va o’quvchilarining ma’suliyatli shaxs sifatida shakllantirishdagi roli ko’rib chiqilgan. Shuningdek milliy va umuminsoniy qadriyatlarni yoshlar ongiga singdirish orqali ularning ma’naviy dunyosini boyitishning pedagogik assoslari yoritilgan. Maqolada pedagogik texnalogiyalarning nafaqat ta’lim samaradorligini oshirish, balki yosh avlodda halollik, insonparvarlik, mehnatsevarlik va milliy qadriyatlarga hurmat kabi axloqiy fazilatlarni shakllantirishdagi o’rni batafsil yoritilgan.

**Kalit so’zi:** Ma’naviy-axloqiy fazilatlar, pedagogik texnalogiyalar, ta’lim va tarbiya, milliy qadriyatlар, umuminsoniy qadriyatlар, interfaol metodlar, muommoli ta’lim, axloqiy tarbiya, shaxs kamolati, ma’naviy tarbiya, o’quvchilar tarbiyasi, zamonaviy ta’lim.

Bugungi kunda ta’lim va tarbiya tizimi, jamiyatning ma’naviy rivojlanishi va yosh avlodni kamolatga yetkazishdagi eng muhim vosita hisoblanadi. O’quvchilarda ma’naviy – axloqiy fazilatlarni shakllantirish bu ularni Vatanparvarlik, milliy qadriyatlар, umuminsoniy axloqiy tamoyillar bilan tanishtirish va ularda mas’uliyat hissini shakllantirish jarayoni yotadi. Bu borada ta’lim va tarbiya tizimi nafaqat bilim berish, balki ularda yuqori darajadagi tafakkur, axloqiy - ruxiy qadriyatlар va mustahkam dunyoqarash vazifasida faoliyat ko’rsatadi. Hozir zamon talablari yosh avlodni nafaqat bilimdon, balki ma’naviy – axloqiy barkamol shaxs sifatida tarbiyalashni talab etadi. Hozirda inson faoliyatining asosiy yo’nalishlari ularda ko’zda tutilgan maqsadlarni to’liq amalga oshirish imkoniyatini beruvchi yaxlit tizimlar, ya’ni texnalogiyalarga aylanib bormoqda. Xuddi shu kabi ta’lim-tarbiya sohasida ham so’ngi yillarda pedagogik texnalogiya amal qila boshladi. Pedagogik texnalogiya tushunchasi ta’lim – tarbiya amaliyotini rivojlantirish ehtiyojlari asosida kelib chiqqan va hozirgi pedagogika, psixologiya fanlarida o’z o’rniga ega bo’lgan keng ko’lamli serqirra tushunchadir. Pedagogik texnalogiya tushunchasi dastlab 20-asrning o’rtalarida AQShda paydo bo’lib, 1940-yillar o’rtasigacha “Ta’lim texnologiyasi” deb yuritilib

kelgan va bu ibora texnika vositalaridan foydalanib o’qitishga nisbatan qo’llanilgan. O’zbekiston Respublikasida uzluksiz ta’lim Davlat ta’lim standartlarri hamda o’quv dasturlari talablariga muofiq tashkil etiladi. Uzluksiz ta’lim quydagи ta’lim turlarini o’z ichiga:

- maktabgacha ta’lim;
- umumiy o’rta va o’rta maxsus ta’lim;
- kasb-hunar ta’limi;
- oliy ta’lim;
- oliy o’quv yurtidan keying ta’lim;
- kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;
- mактабдан ташқари та’лим.

O’zbekiston Respublikas Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi “O’zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi faoliyatining takomillashtirish to’g’risida”gi PQ-3304-sон Qarori qabul qilindi. “Talim to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi qonuniga muofiq ta’lim tizimini isloh qilish, davlat va nodavlat ta’lim muassasalarini hamda ta’lim va kadr tayyorlash sohasida,raqobat muhitini shakllantirish negizida ta’lim tizimini yagona o’quv, ilmiy-ishlab chiqarish majmui sifatida izchil rivojlantirishni taminlandi. Uzluksiz ta’lim kadrlar tizimining asosi, O’zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini taminlovchi shaxs,jamoat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy texnikaviy va madaniy ehtiyojlarini qondirish ustuvor soha bo’lib, ijodkor ijtimoiy faol, ma’naviy boy shaxsning shakllanishi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlarning jadal tayyorlanishi uchun shart-sharoitlarni yaratadi. Ta’lim va tarbiya jarayonini yaxlitlikda o’rganadigan fan sohasi -- prdagogika hisoblanadi. Pedagogika fanining asosiy kategoriyalari shaxs kamolatini taminlash, ta’lim va tarbiya samaradorligiga erishishga qaratilgan jarayonning umumiy mohiyatini yoritadi. Eng muhim kategoriylar sirasiga quydagilar kiradi: ta’lim, tarbiya, malumot, shakllanish, rivojlanish kabilalar. Ta’lim- o’quvchilarni nazariy bilim, amaliy ko’nikma va malakalar bilan qurollantirish, kompetenlikni tarkib toptirish, ularning bilish qobiliyatlarini o’stirish va dunyoqarashni shakllantirishda yo’naltirilgan jarayon hisoblanadi.

Pedagogika tarbiya haqidagi fan sifatida, tarbiyaning mohiyatini tushunishi uning qonuniyatlarini ochib berishni va shu orqali inson manfaatlari uchun tarbiya jarayoniga ta’sir etishni nazarda tutadi. Pedagogikaning fan sifatida shakllanishi yosh avlodni hayotga tayyorlash, ular tarbiyasini samarali amalga oshirish ehtiyojidan kelib chiqadi. Bu ehtiyoj borasida orttirilgan tajribalar to’plangandan keyin o’sha tajribalarni umumlashtirish yoshlar tarbilyasi haqida qonun-qoidalarni ishlab chiqish zaruriyatini taqazo etadi. Pedagogikada “tarbiya” so’zi turli manoda ishlataladi. Chunonchi, tarbiya keng manoda, ijtimoiy hodisa sifatida qo’llanilganda jamiyatning barcha tarbiyaviy vositalarini: oilani, maktabgacha ta’rbiya muassasalarini, o’quv tarbiya muassasalarini,

mehnat jamoalari, axborot manbalarining tarbiya yo’nalishida olib boriladigan harakatlarni o’z ichiga oladi. Pedagogikaning tarbiya sohasidagi ob’yekti o’sib kelayotgan yosh avlod bo’lganligi uchun pedagogika insonni o’rganuvchi fanlar bilan bog’liqdir. Inson tabiatdagi rivojlanishning mahsuli sifatida biologiya fanini o’rganadigan ob’yekt hisoblanadi. Tarbiyaning maqsadi shaxsni har tomonlama va uyg’un kamol toptirishtirish, hamda uning ma’naviy, axloqiy estetik qadriyatlarni shakllantirish va jamoalarni vujudga keltirishdir. Maqsad bilan bir qatorda, hal qilinishi maqsadga erishishni ta’minlaydigan vazifalar ham turadi. Masalan, tarbiyaning umumiyligi maqsadini ro’yboga chiqarish, ya’ni shaxsni har tomonlama kamol toptirish uchun aqliy, axloqiy, g’oyaviy siyosiy, estetik, mehnat va jismoniy tarbiya vazifalarini amalga oshirish zarur. Tarbiya ba’zan to’plangan bilimlarni, faoliyat tajribalarini yosh avlodga berishning yo’li sifatida, ba’zan erishilgan ma’naviy madaniyatni qayta tiklash va rivojlanirishning omili sifatida, ba’zan esa ijtimoiy munosabatlarning alohida shakli sifatida ta’riflanadi.

Ta’lim va tarbiya tushunchasining qaysi biri kengroq ma’noga ega ekanligi xususidagi bahs samarasizdir, chunki hamma gap ularning qaysi maqsadga qo’llanishidadir. Adabiyotlarda ko’p uchraydigan “ta’lim” va “tarbiya” so’zlarini pedagogik jarayonning qarama-qarshi tomonlarini ifodalash uchun qo’llanilishi unchalik to’g’ri emas. Binobarin, ta’lim bilim berishning maqsadga muofiq jarayoni sifatida doimo muayyan shaxslarni tarbiyalashni o’z ichiga oladi. Tarbiyaning yo’nalishi esa, hatto ta’limning mazmuni va saviyasi bilan rasman bir xil bo’lsa ham prinsip jihatdan turlicha bo’ladi. Ta’lim tarbiya muassasalarida amalga oshiriladigan chuqur pedagogik jarayon sifatidagi ta’rbiya haqida gapirish uning faqat bir tomonini kasbiy jihatini ko’rsatishini bildiradi. Abdulla Avloniy ilm tarbiya jarayonida o’zlashtiriladi va u yaxshini yomondan, ezbilikni yovuzlikdan, joizni nojoizdan farqlash imkonini beradi, deb hisoblaydi. U tarbiya bilan ta’limning birligi muammosini ishlab chiqdi. Garchi Avloniy ta’lim bilan tarbiya o’rtasida ozgina farq borligini aytgan bo’lsa ham, ular ta’na va jon singari bir – biriga chambarchas bog’liqdir deydi.

Shaxsning ma’naviy – axloqiy qiyoғasi hayotiy yondashuvlari, uning uchun ustuvor ahamiyatga ega bo’lgan qadriyatlarni hamda axloqiy tamoyillar mohiyati u ega bo’lgan dunyoqarash mazmunini ifodalaydi. O’quvchilarda ma’naviy-axloqiy tarbiyani shakllantirish ularning ma’naviy dunyosini, ongini, axloqiy hislarini, shaxsiy sifatlari va xulqini tarbiyalash hamda rivojlanirishni taqozo etadi. O’quvchilarni axloqiy tarbiyalashning asosiy vazifalariga quydagilar kiradi: 1) o’quvchilarga axloqiy his tuyg’uiar va xatti-harakatlarni tarbiyalash; 2) xulq madaniyati va ijobiliy his tuyg’ularni tarbiyalash; 3) axloqiy xulq-atvor ko’nikmalarini shakllantirish. Tarbiyaning zamonaviy tamoyillariga – tarbiyachi va tarbiyalanuvchi o’rtasida ma’naviy-axloqiy tarbiyaning muvaffaqiyatli bo’lishi uchun psixik jarayonlarga

(motivatsiya, anglash va boshqalar) pedagogik shart-sharoitlarni yaratish zarur deb belgilangan.

Ma’naviy-axloqiy tarbiyada turli metod va usullardan foydalanish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ma’naviy-axloqiy tarbiya metodlari deganda, o’quvchilarning axloqiy tasavvur va bilimlarni egallab olishga, ularda madaniy xulq va ijobiy munosabatlarni, shaxsning axloqiy his-tuyg’ulari va sifatlarini tarbiyalashga qaratilgan faoliyat usulidir. Ma’naviy-axloqiy tarbiya metodlarini shartli ravishda quydagicha tasnif etish mumkin:

- Ma’naviy-axloqiy ongni shakllantirish metodlari: hikoya, tushuntirish, etik suhbat, izohlash, nasihat, o’git, ko’rsatma, namuna va boshqalar.
- Ma’naviy-axloqiy xulq-atvorni shakllantirish metodlari: mashq, o’rgatish, pedagogik talab, tarbiyalovchi vaziyat, topshiriq va hakazolar.
- Ma’naviy-axloqiy motivasiyani hosil qilishga doir metodlar: rag’batlantirish, musobaqa, tanbeh berish kabilar hisoblanadi.

Xulosa: Oquvchilarda ma’naviy- axloqiy fazilatlarni shakllantirish zamonaviy ta’lim va tarbiya tizimining eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Milliy va umuminsoniy qadriyarni yoshlar ongiga singdirish orqali nafaqat ularning ma’naviy olamini boyitish, balki jamiyatda barqaror taraqqiyot uchun poydevor yaratish mumkin. Bu jarayonda pedagogik texnalogiyalar muhim rol o’ynaydi, chunki ular ta’lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etishga yordam beradi. Zamonaviy pedagogik texnalogiyalar ta’lim mazmunini faqat nazariy bilim berish bilan cheklanmay ,o’quvchilarning shaxsiy va ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirishga xizmat qiladi. Masalan, interfaol metodlar, muammoli ta’lim, loyihami yondashuvlar va guruhlarda ishslash texnalogiyalari o’quvchilarda ijodkorlik, tanqidiy fikrlash va jamoaviy ishslash ko’nikmalarini rivojlantiradi. Shu bilan birga, axloqiy tamoyillarni chuqur o’zlashtirishga, ma’naviy qadriyatlarni ongli ravishda qabul qilishga yordam beradi. Pedagoglar zamonaviy texnalogiyalardan foydalangan holda yosh avlodni milliy qadriyatlarimizga hurmat, insonparvarlik, halollik va mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashlari lozim. Ayniqsa o’quvchilarni amaliy faoliyatga jalb etish, ularni milliy madaniyat va analalarga yaqinlashtirish ularda ma’naviy ong va axloqiy mas’uliyatni shakllantirishga yordam beradi. Umuman olganda o’quvchilarda ma’naviy-axloqiy fazilatlarni shakllan tirishda pedagogik texnalogiyalarning roli katta. Bu texnalogiyalar nafaqat ta’lim samaradorligini oshiradi, milliy qadriyatlarga sodiq va umuminsoniy tamoyillarni qadirlaydigan shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Shu sababli pedagoglar texnalogiyalardan to’g’ri va samarali foydalanib, ta’lim-tarbiya jarayonini doimiy ravishda takomillashtirib borishlari zarur. Jamiyat taraqqiyoti uchun o’z vazifasini anglagan, ma’naviy va axloqiy jihatdan barkamol yoshlarni tarbiyalash eng asosiy maqsad bo’lib qoladi. Ta’iim va tarbira tizimining samaradorligini oshirish

uchun zamonaviy pedagogik texnalogiyaiarini keng joriy etish – kelajak avlod muvaffaqiyati garovidir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. B. X. Xodjayev (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti). Umumiy pedagogika “Sano-standart” nashriyoti . Toshkent—2017.
2. R. Mavlonov, N. Raxmonqulova, N. Voxidova, K. Matnazarova. (Boshlang'ich ta'lif va sport tarbiyaviy ish). Pedagogika (Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti). Toshkent—2013.
3. B. E. Karimova (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti). Kreativ pedagogika “Metodist nashriyoti”. Toshkent—2023.
4. O'. Tolipov, D. Ro'ziyeva. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent—2019.